QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletalieva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybullov	



UO'K: 336.71.078.3

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Suxrob G'aybulloev

Kimyo universiteti mustaqil ilmiy tadqiqotchisi

Email: suxrob7788@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6714-1381

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston tijorat banklari Asia Alliance Bank, Aloqabank va Mikrokreditbankning 2020–2025 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida bank aktivlari sifatini mustaqil baholash (AQR - Asset Quality Review) markazini tashkil etishning zarurati, konseptual modeli va amaliy yo'l xaritasi tadqiq etiladi. Ushbu maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bank tizimida AQR tajribasi tahlil etiladi. XVFnig 2023 yil bo'yicha FSAP hisobotidagi xulosasida «targeted AQR is warranted» iborasini maqsadli tashkil etishga xalqaro asos sifatida ko'rsatiladi. O'zbekiston Markaziy banki tasarrufida uch bosqichli AQR Markazi (Pilot 2025–2026 yillar, Kengaytirish 2027–2028 yillar, Tizimlashtirish 2029 yil) konseptual modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: AQR, aktivlar sifati, NPL, MHXS 9, ECL, EMB, XVFSAP, bank nazorati, O'zbekiston bank tizimi, Asia Alliance Bank, Aloqabank, Mikrokreditbank, prudensial tartibga solish.

Abstract. This scientific article examines the necessity, conceptual model, and practical roadmap for establishing an independent Asset Quality Review (AQR) center, based on statistical data from the Uzbek commercial banks Asia Alliance Bank, Aloqabank, and Microcreditbank for the period 2020-2025. The article analyzes the AQR experience within the banking systems of developed and developing countries. The phrase "targeted AQR is warranted" from the IMF's 2023 FSAP conclusion is presented as an international basis for this targeted establishment. A three-stage conceptual model for an AQR Center under the Central Bank of Uzbekistan is proposed: Pilot (2025-2026), Expansion (2027-2028), and Systematization (2029).

Key words: AQR, asset quality review, NPL, IFRS 9, ECL, ECB, IMF FSAP, banking supervision, Uzbekistan banking sector, Asia Alliance Bank, Aloqabank, Mikrokreditbank, prudential regulation.

Аннотация. В данной научной статье исследуется необходимость, концептуальная модель и практическая дорожная карта создания Центра независимой оценки качества банковских активов (AQR - Asset Quality Review) на основе статистических данных коммерческих банков Узбекистана Asia Alliance Bank, Алокабанк и Микрокредитбанк за 2020-2025 годы. В данной статье анализируется опыт АБР в банковской системе развитых и развивающихся стран. Фраза "targeted AQR is warranted" в заключении МВФ FSAP за 2023 год указывается в качестве международной основы для целенаправленной организации. Предлагается концептуальная модель трехэтапного Центра США (Пилот 2025-2026, Расширение 2027-2028, Систематизация 2029) при Центральном банке Узбекистана.

Ключевые слова: AQR, качество активов, NPL, МСФО 9, ECL, ЕЦБ, МВФ FSAP, банковский надзор, банковская система Узбекистана, пруденциальное регулирование.



KIRISH

Bank aktivlari sifatini mustaqil baholash — AQR (Asset Quality Review) zamonaviy moliyaviy nazoratning eng samarali instrumentlaridan biri sifatida jahon amaliyotida tasdiqlangan. EMB (2014), AQSH FZT (2009), Yaponiya FSA (2002) va Qozog'iston NBRK (2019) tajribalari shuni ko'rsatdiki: banklarning rasmiy moliyaviy hisobotlari kredit portfeli sifatini hamisha to'liq aks ettirmaydi. AQR kredit fayllarini chuqur tekshirish, garov qiymatini mustaqil baholash va ECL zaxira yetarilishini EMB/XVF metodologiyasi asosida tasdiqlash vositasidir.

O'zbekiston bank tizimi 2020–2025-yillar davomida jadal o'sishni boshdan kechirdi. Asia Alliance Bank, Aloqabank va Mikrokreditbank rasmiy ma'lumotlari bazasidan olingan real ko'rsatkichlar asosida tahlil etiladi. Uch bankning jami aktivlari 2020-yildagi 21.32 trln so'mdan 2025-yilda 71.09 trln so'mga — 3.3 barobar oshdi. Biroq ushbu o'sish fonida ayrim tizimli muammolar — Aloqabankda LDRning 117% ga ko'tarilishi, Mikrokreditbankning ROA ko'rsatkichi 2024-yilda -6.28%, va 1.955 trln so'm zaxira xarajatlari aktivlar sifatini mustaqil baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Maqolaning maqsadi: O'zbekiston Markaziy banki rasmiy statistika ma'lumotlari asosida uchta bankning 2020–2025-yillardagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil etish, AQR aktivlar sifatini mustaqil baholash zarurligini asoslash va O'zbekistonda aktivlar sifatini mustaqil baholashni tashkil etishning ilmiy asoslangan konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlari sifatini mustaqil baholash (AQR) va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar asosan bank nazoratining samaradorligi, kredit tavakkalchiliklarini prognoz qilish va institutsional nazorat modellarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yevropa Markaziy banki metodologiyasiga ko'ra, AQR bank aktivlarining haqqoniy qiymatini belgilash, aktivlar klassifikatsiyasi va zaxiralar shakllantirilishining aniqligini mustaqil baholash vositasi sifatida talqin etiladi. 2014-yilda EMB tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli AQR dasturi nafaqat Yevropa, balki global miqyosda bank nazoratining yangi standartini belgilab berdi.

Ilmiy manbalarda AQR jarayonining ahamiyati quyidagi yo'nalishlarda tahlil etiladi: ma'lumotlar asimmetriyasini kamaytirish — banklarning rasmiy hisobotlari har doim ham kredit portfelining real holatini aks ettirmasligi EMB, AQSH FZT va Qozog'iston milliy banki tajribalarida o'z isbotini topgan, AQR bu borada axborot nomutanosibligini bartaraf etuvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Kredit tavakkalchiligini baholash — MHXS 9 standarti doirasida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (ECL) hisoblashda PD, LGD va EAD kabi parametrlarning to'g'ri qo'llanilishi AQRning metodologik asosini tashkil etadi. Tizimli barqarorlik va stress-testlar — Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) va Bazil qo'mitasi metodologiyalari asosida o'tkaziladigan stress-testlar AQR natijalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bank kapitalining real bufer darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mintaqaviy tajriba nuqtayi nazaridan Qozog'iston milliy bankining 2019–2020-yillardagi tajribasi O'zbekiston uchun eng yaqin model sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda "Big 4" auditorlik kompaniyalarining jalb etilishi va mustaqil baholash natijasida tizimdagi muammoli banklarning aniqlanishi institutsional mustaqillikning muhimligini ko'rsatdi.

O'zbekiston bank tizimiga oid tadqiqotlarda esa, davlat ulushi mavjud banklarda aktivlar sifati va NPL (muammoli kreditlar) boshqaruvida tizimli muammolar mavjudligi ta'kidlanadi. XVFning 2023-yilgi FSAP hisobotida O'zbekiston uchun maqsadli AQR o'tkazish asosli ekanligi (targeted AQR is warranted) alohida qayd etilgan bo'lib, bu mazkur tadqiqotning dolzarbligini xalqaro miqyosda tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank tizimi shaffofligini oshirish va yashirin NPL hajmini aniqlashda mustaqil AQR markazini tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan zarurdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy moliyaviy statistika ma'lumotlari bazasidan 2020–2025-yillar yakunidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Asia Alliance Bank, Aloqabank, Mikrokreditbank kabi yirik, o'rtacha va kichik toifadagi banklar vakillari sifatida tanlab olindi. Ushbu banklarni tanlashda ikki mezon asos bo'ldi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlarida to'liq yillik ma'lumot mavjudligi; ikkinchidan, banklarning hajmi va biznes modeli jihatidan farq qilishi asos bo'lgan.

Metodologik asos: statistik trend tahlili, gorizontaal va vertikal tahlil, korrelyatsiya tahlili, ssenariy modellash (stress-test), qiyosiy tahlil usullari, XVF FSI va Basel qo'mitasi metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: gorizontaal tahlil — ko'rsatkichlarning yillik dinamikasi; vertikal tahlil — balans tarkibini baholash; normativlar muvofiqligi tahlili va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



Basel III me'yorlari bilan taqqoslash; AQR zarurati ko'rsatkichlarini NPL, zaxira xarajatlari va ROA asosida baholash; xalqaro taqqoslama tahlil EMB, AQSH, Yaponiya, Qozog'iston AQR tajribalariga asoslangan.

Asset Quality Review (AQR) banklarning kredit portfeli, investitsiyalar va balansdan tashqari majburiyatlari sifatini mustaqil va chuqur baholash hisoblanadi. AQRning amaldagi taftishdan (audit) va prudensial nazoratdan asosiy farqi — u maxsus metodologik tizim va mustaqillik tamoyili asosida o'tkaziladi.

Yevropa Markaziy banki tomonidan "AQR bankning aktivlar bahosi, klassifikatsiyasi va shu asosda shakllantirilgan zaxiralarning aniqligi va to'liqligini mustaqil baholovchilar tomonidan tekshirishdan iborat" degan ta'rif beriladi. 2014-yilda EMB yagona nazorat mexanizmi (SSM) doirasida Yevropa bank tizimidagi 130 ta tizimli ahamiyatli bankning 3 trln yevrolik aktivini AQR orqali baholadi.

Banklarda AQRning maqsadi — bank moliyaviy holatini aniqlash, axborot asimmetriyasini kamaytirish va kapital buferlarining real darajasini belgilash. Banklarda AQR tizimi uch blokli metodologik asosdan iborat:


- bank portfeli sifati tahlili (Portfolio Sampling): kredit portfelidan statistik namuna olish, har bir kredit faylini chuqur tekshirish, PD/LGD/EAD parametrlarini qayta baholash;
- garovni (ta'minotni) baholash: mustaqil baholovchilar tomonidan ko'chmas mulk, texnika va boshqa aktivlar qiymatini bozor narxi asosida qayta hisoblash;
- zaxiralar yetarliligini tekshirish: MHXS 9 ECL (Expected Credit Loss) modeli asosida zaxiralarning real yo'qotishlarni qoplash uchun kifoyaliligini baholash.

Maqolada MHXS 9 ECL modeli (PD/LGD/EAD parametrlari), IFRS 13 haqqoniy qiymat standarti, BCBS 144 likvidlik tavakkalchiligini boshqarish tamoyillari va XV FSI metodologiyasi (IMF, 2019) asos sifatida qabul qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida keltirilgan 1-rasmda uchta bankning jami aktivlari, xususi kapitali va jami depozitlar dinamikasi tasvirlangan (1-rasm).

Расм 1. Банклар баланс кўрсаткичлари динамикаси (2020–2025, трлн. сўм)



1-rasm. Tijorat banklarining aktivlari, xususi kapitali va depozitlari dinamikasi¹, (trln. so'm)

Ushbu 1-rasmda aks etgan uchta bankning 2020–2025-yillar davomidagi balans ko'rsatkichlari o'sish sur'atidagi keskin farqlarni ko'rsatmoqda. Aktivlar bo'yicha Aloqabank barcha yillarda eng yirik bank sifatida ajralib turadi va 2025-yilda 31,5 trln so'mga yetib, 2020-yilga nisbatan 3,9 barobar o'sgan. Mikrocreditbank esa 10,3 trln so'mdan 30,7 trln so'mga ko'tarildi, ya'ni mutlaq o'sish miqdori bo'yicha Aloqabankka yaqinlashdi. Asia Alliance Bank kichikroq bazadan boshlagan bo'lsa-da, eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatib, 2,9 trln so'mdan 8,8 trln so'mga, ya'ni 3 barobarga oshgan.

1 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.




Kapital dinamikasi alohida e'tiborga molik bo'lib, bunda Mikroreditbank 2022-yilda kapitalini 1,7 trln so'mdan 3,6 trln so'mga oshirdi va bu davlat tomonidan amalga oshirilgan kapitalizatsiya natijasi hisoblanadi. Depozitlar bo'yicha barcha uch bankda izchil o'sish kuzatildi, ammo Mikroreditbankda depozitlar 2025-yilda 9,73 trln so'm bilan kreditlarga (19,98 trln so'm) nisbatan ikki baravar kamligini ko'rish mumkin. Bu esa bank likvidligini qoplashda LDR ko'rsatkichining 205,4% darajasida qolishining asosiy sabablaridan biri bo'lib, AQR zarurligini asoslaydigan birinchi dalil hisoblanadi.

Tahlil obyekti hisoblangan banklarning 2020–2025-yillardagi 14 ta asosiy moliyaviy ko'rsatkichi to'liq tahlil etildi va tizimlashtirildi. O'zbekistonda AQRga o'tish zarurati to'rtta tizimli omil bilan asoslandi:

- davlat ulushi mavjud banklarning ustun mavqega egaligi;
- kreditlar sifati va tasnifini alohida mustaqil baholashni tashkil etish;
- MHXS 9ning ECL modeli standart emasligi va tez kredit o'sishidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yashirin NPL mavjudligi (2-rasm).

Расм 2. Капитал ва ликвидлилик нормативлари (2020–2025)



2-rasm. Tijorat banklarining CAR, LCR, NSFR va HQLA normativlari dinamikasi ²

Ushbu rasmda banklarning prudensial normativlar profili batafsil keltirilgan. Banklarning kapital monandiligi ko'rsatkichlari panelida eng muhim jihat — Aloqabankda 2022-yildagi 12,49 foiz ko'rsatkichning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan 13 foizlik minimal me'yordan past bo'lib, belgilangan normativ buzilganidir. Ushbu pasayish kredit portfelining tez kengayishi (2020–2022-yillarda 5,70 trln so'mdan 8,9 trln so'mga) kapital bazasidan oshib ketganligini bildiradi.


Aloqabankning likvidlik ko'rsatkichlari panelida 2021-yildagi 110,9 foiz va 2023-yildagi 103,1 foiz ko'rsatkichlar minimal 100% me'yoriga yaqinlashgani sababli xavotirli hisoblanadi. Bank bo'yicha 30 kunlik

2 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.



stress ssenariysida likvidlikni qoplash ko'rsatkichi 86 foizga tushishi mumkinligi ko'rsatildi. Sof barqaror moliyalashtirish panelida barcha uch bank me'yorni bajardi, ammo Aloqabankda 2022-yildagi 100,9 foiz ko'rsatkich quyi chegara darajasida bo'lgani uchun xavotirli hisoblanadi (3-rasm).

Расм 3. Молиявий барқарорлик ва рентабеллик (2020-2025)

3-rasm. Tijorat banklarining ROA, ROE, sof foyda va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari dinamikasi³

Ushbu rasmdagi to'rt panel tadqiqot obyekti bo'lgan uch bankning rentabellik va moliyaviy samaradorlik profilini ko'rsatadi. Bunda aktivlar rentabelligi (ROA) panelida eng past ko'rsatkich Mikrocreditbankning 2024-yildagi -6,3 foizni tashkil etgan. Ushbu holat bankning 1,7 trln so'm zarar ko'rgani bilan izohlanadi. Mazkur zarar zaxira xarajatlarning 1 955 mlrd so'mga oshishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu kredit portfelining sifatini mustaqil baholash (AQR) zarurligini ko'rsatadi.


Asia Alliance Bank 2022-yildan boshlab ROAni 2,5 foizdan 2025-yilda 6,2 foizgacha oshirgan va bu bank tizimida yuqori rentabellik hisoblanadi. Sof foyda panelida Mikrocreditbankning 2024-yildagi -1,7 trln so'm zarari grafikda yaqqol ko'rinadi. ROE panelida Asia Alliance Bankda 2023-yildagi 45,4% kapital samaradorligining eng yuqori darajasi qayd etilgan (4-rasm).

Banklarning operatsion samaradorlik panelida Mikrocreditbankda 2024-yildagi 80,1 foiz natija samaradorlik ko'rsatkichlarining keskin yomonlashganini ko'rsatadi.

3 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.



Расм 4. Кредит таваккалчилиги ва AQR зарурати кўрсаткичлари (2020–2025)


4-rasm. Tijorat banklarining AQR zarurati uchun LDR, NPL, zaxira xarajatlari ko'rsatkichlari ⁴

Mazkur 4-rasmda uch panel aynan banklar faoliyatida aktivlar sifatini mustaqil baholash (AQR) zarurligini asoslaydigan ko'rsatkichlarni keltiradi. Banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati ko'rsatkichi Mikrocreditbankda barcha tahlil qilingan yillar davomida 205–350% oralig'ida bo'lib, bu bank depozitlarining 2–3 baravariga teng kreditlar bergani, moliyalashtirish uchun banklararo bozorga to'liq bog'liq ekanligini bildiradi.

Aloqabankda 2020-yildan 2025-yilgacha kreditlarning depozitlarga nisbati 115,7 foizdan 117,1 foizga oshgan bo'lib, kreditlash depozit bazasidan doim oldinda ekanligini ko'rsatadi. NPL panelida Aloqabankda 2023-yildagi keskin o'sish 310 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 105 mlrd so'mga pasayish kuzatilgan, ammo 2025-yilda yana 516 mlrd so'mga oshgani NPL boshqaruvida tizimli muammo mavjudligini ko'rsatadi.

Banklarning zaxira xarajatlari panelida Mikrocreditbankning 2024-yildagi 1 955 mlrd so'mlik zaxira xarajati tizimdagi eng katta yuklama hisoblanadi. Bu ko'rsatkich AQRdan oldin kreditlar sifatining mustaqil baholanmagani va unda ECL modeli parametrlarining standartlashmagani bilan izohlanadi (5-rasm).

Расм 5. 2025 йил якуни: 3 банк молиявий барқарорлик профили (Нормалаштирилган 0–100)

5-rasm. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik profili ⁵

⁴ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан тузилди.



Ushbu 5-rasmda banklar faoliyatining ettita ko'rsatkich bo'yicha normallashtirilgan (0–100 shkala) profilari taqqoslanmoqda. Asia Alliance Bank (to'q ko'k) barcha ettita ko'rsatkich bo'yicha eng muvozanatli va keng profilga ega bo'lgan. Ayniqsa ROA (6,2%), CIR (38,1%) va LDR (63,7%) bo'yicha tizim yetakchisi bo'lganini ko'rish mumkin.

Aloqabank (o'rta ko'k) LCR va NSFR ko'rsatkichlari bo'yicha yetarli, ammo LDR (117,1%) bo'yicha profilning tuzilishi pastga tushib, buzilgan. 2025-yildagi NPL 516 mlrd so'm esa grafik tashqarisida qolgani sababli tashvishli ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Mikrokreditbank (yashil) CAR (18,5%) va NSFR (113%) bo'yicha kuchli pozitsiyaga ega, ammo LDR (205,4%) bo'yicha juda yuqori va ROA (0,59%) bo'yicha juda past daraja profilni yanada kichraytirmoqda. Bankning 2024-yil yakunida -6,3 foizni tashkil etgan ROA ko'rsatkichidan keyingi 2025-yilda 0,59 foizga qaytishi tiklanish belgisi bo'lsa-da, davomiy monitoringni talab etadi.

Ushbu diagrammadan umumiy xulosa qilib, O'zbekistonda AQR markazini tashkil etishda maqsadli amaliy asos sifatida foydalanish mumkin.

O'zbekiston bank amaliyoti uchun Qozog'iston milliy banki tajribasi eng yaqin va amaliy jihatdan maqbul hisoblanadi. Qozog'iston milliy banki tomonidan 2019–2020-yillarda KPMG va Deloitte jalb qilinib, 14 ta yirik bank baholandi, shundan 3 ta bank likvidlashtirildi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda AQRning 5 ta xalqaro namunasi bo'yicha taqqoslama tahliliy ma'lumot berilgan (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro amaliyotda AQR tajribasining taqqoslama tahlili⁶

Parametr	EMB 2014	AQSH SCAP 2009	Yaponiya FSA 2002	Qozog'iston 2019	O'zbekiston bank tizimi uchun takliflar
Banklar	130	19	11	14	30+ (1-navbat: 9*)
Aktivlar	3.72 trln.evro	2.5 trln.AQSH dollari	1.5 trln. yapon ienasi	180 mlrd.AQsh dollari	~300 trln. so'm
Tashkilotchi	EMB+SSM	FZT+Xazina	FSA	NBRK+JB	O'zMB+XVF/JB
Audit	Oliver Wyman+Big4	Big4	Big4	KPMG+Deloitte	EY+PwC+KPMG
Asosiy topilma	+136 mlrd.evro zaxira	74.6 mlrd. AQSH dollari kapital	8.7 trln. yapon ienasi zaxira	3 bank tugatildi	Erta aniqlash
Davomiylik	12 oy	6 oy	3 oy	18 oy	18 oy (1-faza)

*davlat ulushi mavjud banklar

Tahlil amalga oshirilgan davlatlar bank tizimida baholangan banklar soni va aktivlar hajmi AQR samaradorligining birinchi mezoni hisoblanadi. EMBning 2014-yildagi dasturi 130 bank va 3,72 trln yevrolik aktivni qamrab olgan tarixdagi eng keng qamrovli AQR hisoblanadi. AQSHda SCAP esa atigi 19 bankni tekshirgan, lekin 2,5 trln dollarlik aktiv konsentratsiyasi tizimning yuqori monopollashganligini tasdiqlaydi. Yaponiya FSAning 11 bank bilan cheklanishi va Qozog'istonning 14 bankli tajribasi nisbatan tor, ammo maqsadli jarayonlar sifatida qarash mumkin. O'zbekiston uchun taklif etilgan 30+ bank (birinchi navbatda 9 ta) davlat ulushi mavjud banklarni ustuvor tarzda baholash taklif etildi.

AQR baholashni kim amalga oshirishi masalasida aksariyat mamlakatlarda Markaziy banklar shug'ullangan va uning modellari nazorat hamda moliyaviy kafolatni birlashtirgan ikkiyoqlama mexanizmni namoyon etadi. Qozog'iston milliy banki va Jahon banki hamkorligi ko'pchilik mamlakatlar uchun maqbul model hisoblanadi va O'zbekiston uchun taklif etiladi.

Barcha rivojlangan davlatlar tajribasida Big4 audit kompaniyalari yoki ularga tengdosh firmalar AQRni mustaqil tasdiqlagan. O'zbekiston uchun KPMG yoki boshqa bir yirik auditorlik kompaniyasini taklif etish maqsadga muvofiq bo'lib, xalqaro audit standartlarini milliy ekspertiza bilan uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi va ishonchlilikni ta'minlash uchun zarur shart hisoblanadi.

Banklarda AQR dasturlarini joriy etish miqyosi, tashkilotchilik tuzilmasi va vaqt oralig'i mamlakatning bank tizimi rivojlanganlik darajasiga mutanosib ravishda moslashtiriladi. O'zbekiston uchun taklif etilgan model Qozog'iston tajribasiga yaqin, ammo EMB va XVF metodologik standartlaridan foydalanish hamda uni sifat jihatidan yuqoriroq darajaga ko'tarish imkonini beradi.

6 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.



O'zbekiston uchun taklif etilayotgan AQR markazi "mustaqil funksional bo'linma" modeli, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasarrufida alohida mustaqil organ asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu Qozog'iston milliy banki tajribasiga muvofiq bo'lib, O'zbekiston Markaziy bankining institutsional mustaqilligini ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda AQR markazini tashkil etishning modellari⁷

Modellar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Model A: O'zbekiston Markaziy banki tarkibida mustaqil bo'linma	- Tez tashkil etish - Nazorat ma'lumotlariga to'g'ridan to'g'ri kirish - Minimal huquqiy o'zgarishlar - Qozog'iston milliy banki tajribasiga mos	Markaziy banki mustaqilligiga «ichki» tahdid
Model B: Alohida agentlik sifatida chiqarish	- To'liq mustaqillik - EMB SSM modeliga yaqin - Alohida moliyalashtirish	- YAngi qonun zarur - Uzoqroq tashkil etish - Ko'proq xarajat
Model C: Jahon banki va XVJ bilan hamkorlikda	- Xalqaro tajriba - Texnik yordam «Big 4» jalb qilish oson	- Vaqtinchalik - Xalqaro tashkilot chiqsa, davom etmasligi mumkin

Mazkur jadvalda uchta institutsional model taqqoslanib, har birining afzallik va kamchiliklari aniqlangan. Bunda Model A (O'zbekiston Markaziy banki tarkibida mustaqil bo'linma) tez ishga tushirish, normativ ma'lumotlarga to'g'ridan-to'g'ri kirish va Qozog'iston milliy banki tajribasiga mosligi bilan ajralib turadi. Biroq "O'zbekiston Markaziy banki mustaqilligiga ichki tahdid" deb belgilangan kamchilik modelning asosiy institutsional zaifligi hisoblanadi. Jahon bankining FSAP 2025-yilgi ma'ruzasida ham ta'kidlanganidek, nazoratchi organ ayni vaqtda tekshiriladigan tuzilmaga tobe bo'lishi obyektivlikni cheklaydi.

Model B (alohida agentlik sifatida tashkil etiladi) EMB joriy etgan SSM modeliga o'xshaydi va "to'liq mustaqillik" arxitekturasiga yaqinligi bilan nazariy jihatdan optimal hisoblanadi. Ammo "yangi qonun zarurligi" va "ko'proq xarajat" kabi kamchiliklar ushbu modelning amaliy imkoniyatini pasaytiradi.

Model C (JB/XVF bilan qo'shma) xalqaro tajriba va texnik yordamni jalb etishda "Big 4" audit standartlarini oson tatbiq etish imkonini beradi. Kamchiligi — vakolat taqsimotida xorijiy tashkilot ishtirokidagi davomiylik xavfi, ya'ni loyiha yakunida institutsional xotira mamlakatda qolmasligi mumkin.

Taklif etilgan A+C kombinatsiyasi ushbu ikkilamchi xavfni oqilona hal qiladi: dastlab O'zbekiston Markaziy banki tarkibida tashkiliy tuzilma (tezlik va ma'lumotga kirish imkoniyati) yuzaga keltiriladi hamda XVF/JB texnik ko'magi asosida metodologik standartlar ta'minlanadi. Bu yondashuv Qozog'iston milliy banki va Jahon banki tajribasiga mazmunan o'xshash bo'lib, u yerda ham dastlab ichki tuzilma ishga tushirilib, keyin alohida tuzilma sifatida ajratilgan (3-jadval).

3-jadval. AQR Markazi tashkiliy tuzilmasi va kadrlar rejasi⁸

Bo'linma	Asosiy vazifalar	Xodimlar soni	Malaka talablari
1. Kredit tahlili bo'limi	Kredit fayllarini chuqur tekshirish, PD/LGD/EAD qayta hisoblash, NPL klassifikasiya taftishi	12–15 mutaxassis	CFA/FRM, MHXS 9 sertifikat, bank nazorati tajribasi
2. Garov baholash bo'limi	Mustaqil baholovchilarni akkreditatsiyalash, IFRS 13 muvofiqlik nazorati, ko'chmas mulk ekspertizasi	8–10 mutaxassis	Lisenzialash ekspertizasi, RICS/AVA malakasi, MHXS 13
3. Stress-test va modellashtirish	ECL modeli validatsiyasi, stress-test o'tkazish, makro ssenariylar ishlab chiqish	6–8 mutaxassis	Econometrics, Python/R, EBA/BCBS stress-test metodologiyasi
4. Huquqiy va muvofiqlik bo'limi	Me'yoriy baza ishlab chiqish, banklar bilan shartnoma tuzish, AQR natijalarini rasmiylashtirish	4–5 mutaxassis	Bank huquqi, MHXS/IFRS, Basel III
5. Xalqaro aloqalar bo'limi	EMB, XVF, JB, BCBS bilan koordinatsiya, tajriba almashish, texnik yordam jalb qilish	3–4 mutaxassis	Ingliz/nemis tili, xalqaro moliya institutlari tajribasi
JAMI XODIMLAR	Markaz imkoniyati: 7 ta D-SIB*, yillik 7-9 ta bank	33–42 mutaxassis	Talabga asosan

* D-SIB - Domestic SIB, ya'ni milliy miqyosda tizimli ahamiyatga molik bank

⁷ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁸ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Ushbu jadvalda AQR markazining beshta funksional bo'linmasi, jami 33–42 nafar mutaxassis shtatidan iborat tuzilmasi va ularning malaka talablari belgilangan. Bu tashkiliy loyiha inson kapitali nazariyasi va funksional tamoyillar asosida joriy etish uchun ishlab chiqilgan.

Funksional tuzilma beshta bo'linmadan iborat bo'lib, ular ierarxik emas, balki parallel ixtisoslashgan tarzda loyihalangan. Bunda kredit tahlili (12–15 nafar mutaxassis) AQRning yadrosi bo'lib, PD/LGD/EAD parametrlarini hisoblash va NPL klassifikatsiyasi birinchi bo'linmaga yuklatilgan. Bu EMBning 2014-yildagi AQR metodologiyasida ham kredit fayllarini tekshirish (Credit File Review) markaziy blok bo'lganligi bilan to'liq mos keladi.

Garovlarni baholash bo'linmasi (8–10 nafar mutaxassis) IFRS 13 muvofiq baholash standarti va RICS/AVA akkreditatsiyasi talablari asosida shakllantiriladi. Bu yondashuv ko'chmas mulk portfelining O'zbekiston banklarida yuqori konsentratsiyasi mavjudligi bilan asoslanadi.

Stress-test va modellashtirish bo'linmasi (6–8 nafar mutaxassis) econometrics, Python/R ko'nikmalari va EBA/BCBS stress-test metodologiyasini talab etadi. Ushbu bo'linma tarkibi EMBning AQRdan keyingi kompleks baholash (Comprehensive Assessment) metodologiyasiga mos keladi. Shuningdek, ECL validatsiyasi va makrosssenariy modellashtirish AQR yakuniy hisobotining aniqligini ta'minlovchi muhim bo'g'in hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu jadvalda AQR markazining beshta funksional bo'linmasi, jami 33–42 nafar mutaxassis shtatidan iborat tuzilmasi va ularning malaka talablari belgilangan. Bu tashkiliy loyiha inson kapitali nazariyasi va funksional tamoyillar asosida joriy etish uchun ishlab chiqilgan.

Funksional tuzilma beshta bo'linmadan iborat bo'lib, ular ierarxik emas, balki parallel ixtisoslashgan tarzda loyihalangan. Bunda kredit tahlili (12–15 nafar mutaxassis) AQRning yadrosi bo'lib, PD/LGD/EAD parametrlarini hisoblash va NPL klassifikatsiyasi birinchi bo'linmaga yuklatilgan. Bu EMBning 2014-yildagi AQR metodologiyasida ham kredit fayllarini tekshirish (Credit File Review) markaziy blok bo'lganligi bilan to'liq mos keladi.

Garovlarni baholash bo'linmasi (8–10 nafar mutaxassis) IFRS 13 muvofiq baholash standarti va RICS/AVA akkreditatsiyasi talablari asosida shakllantiriladi. Bu yondashuv ko'chmas mulk portfelining O'zbekiston banklarida yuqori konsentratsiyasi mavjudligi bilan asoslanadi.

Stress-test va modellashtirish bo'linmasi (6–8 nafar mutaxassis) econometrics, Python/R ko'nikmalari va EBA/BCBS stress-test metodologiyasini talab etadi. Ushbu bo'linma tarkibi EMBning AQRdan keyingi kompleks baholash (Comprehensive Assessment) metodologiyasiga mos keladi. Shuningdek, ECL validatsiyasi va makrosssenariy modellashtirish AQR yakuniy hisobotining aniqligini ta'minlovchi muhim bo'g'in hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. European Central Bank (ECB). (2014). Asset Quality Review - Phase 2 Manual. ECB Banking Supervision, Frankfurt.
2. International Monetary Fund. (2025). Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program (FSAP). IMF Country Report.
3. International Monetary Fund. (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. IMF, Washington D.C.
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio. BIS, Basel.
5. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Net Stable Funding Ratio (NSFR). BIS, Basel.
6. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for Sound Liquidity Risk Management (BCBS 144). BIS.
7. National Bank of Kazakhstan (NBRK). (2020). Asset Quality Review Results and Methodology. NBRK, Almaty.
8. Japan Financial Services Agency (FSA). (2003). Special Inspection Results. FSA, Tokyo.
9. World Bank. (2025). Republic of Uzbekistan - Financial Sector Assessment. World Bank, Washington D.C.
10. Borio, C. (2010). Implementing the Macroprudential Approach to Financial Regulation. BIS Working Papers No 268.
11. Diamond, D.W., Dybvig, P.H. (1983). Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419.
12. Allen, F., Gale, D. (2007). Understanding Financial Crises. Oxford University Press.
13. Berger, A.N., Bouwman, C.H.S. (2009). Bank Liquidity Creation. Review of Financial Studies, 22(9), 3779–3837.
14. Mishkin, F.S. (2004). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 8th Ed. Pearson.
15. Nouy, D. (2014). Press Conference on Comprehensive Assessment Results. ECB, Frankfurt, 26 October.
16. Enria, A., Farrugia, C., Kerr, J. (2017). The Leverage Ratio and AQR Adjustments. ECB Working Paper No 2038.
17. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. (2020–2025). Молиявий барқарорлик ҳисоботлари. URL: cbu.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>